Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321083

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

KORXONALARNING TASHQI BOZORGA CHIQISHIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA’SIRI

Shoyev Alim Xalmuratovich
Guliston davlat universiteti – katta o‘qituvchi
alim_shoev@mail.ru

Shoyeva Shaxzoda Nematjanovna
Sirdaryo viloyati Sayhunobod tumanidagi 1-o‘rta maktab o‘qituvchi
shaxzoda_shoeva@mail.ru

Annotasiya: Raqamlashtirish korxonaning barqaror rivojlanishini yaxshilash vositalaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish firmalarga tashqi bozorga tezda kirish imkonini beradi. So‘nggi o‘n yilliklarda korxonalar raqamlashtirishga etarlicha e’tibor berayapti, bu esa korxonaning tashqi bozorga tezroq kirishini ta’minlaydi. Bugungi kunda ko‘plab xorijiy korxonalar ushbu modeldan xorijiy bozorda raqobatdosh ustunlik uchun foydalanadilar.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, avtomatlashtirish, tashqi bozor, korxona, raqamli texnologiyalar.

Raqamlashtirish (raqamli transformatsiya) – bu tashkilot rivojlanishini yangi bosqichiga olib chiqishga imkon beradigan biznes jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur joriy etishdir. Bu nafaqat qo‘shimcha uskunalar va dasturiy ta’minotni o‘rnatish, balki korxonada sodir bo‘layotgan barcha jarayonlarni tubdan qayta qurishdir. Raqamlashtirish menejmentga yondashuvlarni o‘zgartiradi, qo‘shimcha aloqa usullarini rivojlantiradi (tashkilot ichida ham, tashqi dunyo bilan ham), yangi korporativ madaniyatni shakllantiradi. Buning natijasida korxonaning raqobatbardoshligi va samaradorligini sezilarli darajada oshadi.

Raqamli texnologiyalar kompaniya faoliyatiga kiritilganda bir qator afzalliklarni beradi, ular orasida ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlarini faol ravishda o‘zgartirish va mahsulotlarning hayot aylanish bosqichlari uchun axborot integratsiyasini ta’minlash orqali ishlab chiqarishning moslashuvchanligini oshirish mumkin. Raqamli transformatsiya innovatsiyalarni joriy etish va biznes modellarini zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish orqali korxona biznes jarayonlarini sifatli yaxshilashni ta’minlaydi.

Foroudi P., Gupta S., Nazarian A. va Duda M.lar o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning firmaning marketing imkoniyatlariga ijobiy ta’sirini aniqladilar. Ular tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni ikkita asosiy komponent (axborot sifati va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi) aniqlaydi degan xulosaga kelishdi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, moddiy va nomoddiy aktivlar va marketing imkoniyatlari o‘rtasidagi munosabatlar kompaniyaning o‘sishi o‘rtasida vositachi sifatida muhim rol o‘ynaydi [3].

Korxonalar raqamlashtirishga o‘tkazilganda, biznes jarayonlari avvalgidan ancha moslashuvchan bo‘ladi. Texnologiyaning chuqur kirib borishi tufayli tashkilot deyarli bir zumda o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarga – mijozlar ehtiyojlari, raqobatchilar faoliyati, davlat iqtisodiy siyosati va boshqalarga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, kompaniya nafaqat boshqa kompaniyalar rivojlanishda orqada qolganda yoki tashqi o‘zgarishlar natijasida bozorni butunlay tark etganda, balki ishonch bilan oldinga siljishda ham doimo raqobatchilardan oldinda bo‘ladi [2].

Shu bilan birga, ishlab chiqarishning ishlatilgan raqamli texnologiyalarga bog‘liqligi darajasining o‘sishini ta’kidlash kerak. Raqamli texnologiyalarga yuqori

Published: 23.12.2024
Cite this article: Shoyev Alim Xalmuratovich, Shoyeva Shaxzoda Nematjanovna (2024). Korxonalarning tashqi bozorga chiqishiga raqamlashtirishning ta’siri. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321083
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

talablarni qo‘yish va integratsiyalashgan raqamli tizimlarning ishlamay qolishi mumkin bo‘lgan zararni hisobga olish kerak, chunki bu korxonaning ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning an’anaviy modeliga nisbatan muhimroq bo‘ladi. Raqamlashtirish deganda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sohasida ilg‘or raqamli texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etish va qo‘llash tushuniladi. Shunga asoslanib, raqamlashtirishdan foydalanish imkoniyati korxonaning tashqi bozorga kirish jarayonini tezlashtiradi. “Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish” kabi tushuncha raqamlashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Bu xodimlarni muntazam, takroriy operatsiyalardan – hisob-fakturalardan, buyurtmalarni qabul qilishdan, tovarlarni jo‘natishdan va boshqalardan xalos etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy apparat va dasturiy ta’minot yordamida ushbu operatsiyalarni avtomatik ravishda amalga oshirish mumkin, bu esa xodimlarning vaqtini bo‘shatadi va ularga yanada murakkab ishlarni bajarishga imkon beradi [1].

Bugun xaridorlar butun dunyo bo‘ylab turli sotuvchilarga murojaat qilishlari mumkin va butun dunyo bo‘ylab eksportchilar soni ortib bormoqda. Natijada, ichki bozor xaridlarning etishmasligi tufayli qisqarishi mumkin. Shunday qilib, raqamlashtirish mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksportga moyilligini oshiradi va shu bilan firmaning omon qolish strategiyasidir. Shunga qaramay, har bir firma tashqi bozorga erta kirish imkoniyatiga ega emas. Xalqaro biznes kompetentsiyasi raqamlashtirish kontekstida firmaning muvaffaqiyati uchun zaruriy shartdir. Biznes muhitini raqamlashtirish ushbu firmalarga o‘z mahsulotlarini arzon narxlarda sotish imkonini beradi. Hamma sanoat va bozorlar bir xil tezlikda raqamlashtirilmaydi, shuning uchun hamma korxonalar ham o‘z biznes modeliga raqamlashtirishni amalga oshira olmaydi. Raqamlashtirish darajasi kompaniyalarning erta xalqaro darajaga chiqish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Raqamlashtirishning ta’siri yangi korxonalarni xalqarolashtirish uchun juda muhimdir, chunki texnologik o‘zgarishlar tashqi bozorga tez kirish uchun asosdir.

Firmada sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar tufayli xalqaro biznes muhiti kichik firma uchun resurslarni baholash va o‘z firmalarining imkoniyatlaridan tashqi bozorga erta va tez kirish uchun foydalanishda qulaydir. Shuning uchun raqamlashtirish kichik kompaniya uchun minimal xavf bilan xalqaro bozorga chiqishning maqbul imkoniyat sifatida qaraladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning yuqori narxi tufayli raqamli transformatsiya katta investitsiyalarni talab qiladi. Korxonalar ko‘pincha cheklangan resurslarga ega va natijalarga yo‘naltirilgan qarorlarni qabul qilish uchun raqamlashtirishning ta’sirini tushunish kerak.

Bozorning shaffofligi va liberallashuvi tufayli raqobat bosimi ostida bo‘lgan firmalar o‘sish va omon qolish uchun o‘z bozorlarini kengaytirishga intilmoqda. Tadbirkorlik darajasi yuqori bo‘lgan firmalar ustunlikka erishish uchun raqobatbardosh strategiyalariga mos keladigan zarur imkoniyatlarni yaratishga ko‘proq sodiqdirlar. Tadbirkorlik yo‘nalishi erta xalqarolashtirishni boshlaydigan zarur omil hisoblanadi. Shu sababli, raqamlashtirishga katta e’tibor qaratadigan korxonalar, tadbirkorlik yo‘nalishi qanchalik yuqori bo‘lsa, tashqi bozorga kirish tezligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ko‘pgina xorijiy firmalar resurs cheklovlarini bartaraf etish uchun global tarmoqlardan foydalanadilar. Mahalliy hokimiyat organlari, investorlar, biznes sheriklar, etkazib beruvchilar, distribyutorlar, mijozlar, ko‘p millatli korxonalar bilan mustahkam aloqalar global miqyosda barqaror raqobatdosh ustunliklarni yaratishga yordam beradi. Bunga 5 ta strategiya yordamida erishish mumkin: 1. Shaxsiy tarmoqdan foydalanish; 2. Qo‘shma hamkorlik; 3. mijozlarni qo‘llab-quvvatlash; 4. Ilg‘or texnologiyalardan foydalanish; 5. Kirishning bir necha usullaridan foydalanish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (global tarmoqlar) korxonalar va ularning biznes sheriklari o‘rtasida ma’lumot almashishni osonlashtiradi. Yuzma-yuz

uchrashuvlar o‘rniga ular raqamli aloqa vositalari orqali bozor va mahsulot ma’lumotlarini almashishlari mumkin. Raqamli aloqa vositalari odamlar orasidagi masofani qisqartiradi va ijtimoiy media almashish va munozaralar orqali biznes sheriklari bilan yaqin munosabatlarni saqlashga yordam beradi. Albatta, bu faqat biznes sheriklari raqamli aloqalarda faol ishtirok etadigan tarmoqlarda sodir bo‘lishi mumkin. Raqamlashtirishga katta e’tibor qaratadigan kichik va o‘rta korxonalar uchun tarmoq qanchalik katta bo‘lsa, tashqi bozorga kirish tezligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Kichik va o‘rta korxonalar xalqaro biznes tartib-qoidalari yoki bozor ehtiyojlarini bilib, tashqi bozorga chiqish jarayonini tezlashtira olmaydi. Amaliy nuqtai nazardan, ushbu vakolatli firmalar raqamlashtirish katta ta’sir ko‘rsatadigan sohada yoki bozorda ishlashlari kerak, shunda ular reklama va tarqatish xarajatlarining pastligidan foydalanishlari mumkin.

Yuqori marketing qobiliyatiga ega firmalar mijozlar talablariga javob beradigan marketing strategiyasini ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu imkoniyat, ayniqsa, firma tashqi bozorga tezda kirish niyatida bo‘lganida juda muhimdir. Raqamli texnologiyalar onlayn platforma orqali an’anaviy marketing narxini sezilarli darajada pasaytiradi. Ko‘pgina firmalar Alibaba elektron tijorat, Facebook, Instagram, Youtube, Google qidiruv tizimi kabi raqamli vositalardan foydalanadilar. Biroq, raqamli marketingni samarali amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun to‘g‘ri maqsadli mijozni aniqlash, mahsulotni to‘g‘ri joylashtirish, samarali narxlash va bozorni tushunish kabi asosiy marketing imkoniyatlari zarur.

Raqamli imkoniyatlar ham ajralib turadi-bu kompaniyaning tijorat faoliyatida qiymat yaratish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyatidir. Raqamli imkoniyatlar nafaqat axborot oqimi va aloqa oqimini qamrab oladi. Texnologik o‘zgarishlar yangi korxonalarning tashqi bozoriga chiqish uchun asosdir. Internet, elektron tijorat va boshqalar kabi raqamli texnologiyalarni o‘z biznesiga kiritishning tabiiy global qobiliyati raqamli iqtisodiyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita raqobatdosh ustunliklarni yaratishi mumkin. Raqamli imkoniyatlarga ega bo‘lgan firma o‘z jarayonlarini optimallashtirish, yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratishni qo‘llab-quvvatlash yoki o‘z tarmog‘idagi biznes sheriklari bilan aloqani yanada qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishi mumkin. Shunday qilib, raqamli imkoniyatlar yangi korxonaning xalqaro bozorga tezroq kirishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘z faoliyatiga raqamlashtirish asoslarini joriy etishga qodir bo‘lgan korxonalar tashqi bozorga boshqalarga qaraganda tezroq kirishlari mumkin. Shunga qaramay, ushbu strategiya allaqachon xorijiy tashkilotlarda juda muvaffaqiyatli ishlamoqda. Raqamlashtirish qaytarib bo‘lmaydigan tendentsiya bo‘lgani uchun raqamlashtirishni xalqaro biznes tadqiqotlariga integratsiya qilish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Драчева В.И. Автоматизация бизнес-процессов // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2017. – №7. Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/avtomatizatsiya-biznes-protsessov

2.Косарева И.Н. Особенности управления предприятием в условиях цифровизации / И.Н.Косарева, В.П.Самарина // Вестник евразийской науки. – 2019. – № 3.

3.Digital technology and marketing management capability: achieving growth in SMEs. P. Foroudi S. Gupta A. Nazarian M. Duda – Qualitative Market Research: An International Journal, 2017